

Pediatric endocrinology in obesity: pathogenesis, prevention and therapy

Toshkent tibbiyot akademiyasi

A.D.Alikulova

B.X Abdullayeva ,

Sh.S.Safaraliyeva

Kirish. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining so‘nggi ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 30 yil ichida bolalar orasida semizlik darajasi ikki barobar ortgan. Pediatric yoshdagi semizlik nafaqat modda almashinuvining buzilishi, balki yurak-qon tomir tizimi, reproduktiv salomatlik, ruhiy-psixologik holat va hatto umr davomiyligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, endokrin tizim bilan bog‘liq semizlik holatlari uzoq muddatli monitoring va murakkab terapiyani talab qiladi. Bugungi kunda endokrin sababli semizlik turlariga gipotiroidizm, insulin rezistentligi, giperkortitsizm (Cushing sindromi), leptin rezistentligi va genetik sindromlar (Prader–Willi sindromi) kiradi.

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda endokrin sababli yuzaga kelgan semizlikning patogenezini tahlil qilish, klinik ko‘rinishlarini aniqlash, samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va kompleks terapiya yondashuvlarini asoslash.

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda 7-16 yoshdagi 85 nafar bolalar ishtirok etdi. Ular orasida tana massasi indeksi (BMI) ≥ 95 -percentilda bo‘lganlar tanlab olindi. Laboratoriya tahlillariga TSH, FT4, insulin, HbA1c, leptin, kortizol, lipid profili, OGTT va gormonlar bilan bog‘liq genetik testlar kiritildi. Shuningdek, har bir bolaning ovqatlanish odatlari, jismoniy faollik darajasi va oilaviy anamnezi (genetik moyillik) tahlil qilindi. Diagnostika mezonlari JSST va Endocrine Society tavsiyalariga asoslanib baholandi.

Tadqiqot natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

- a) 38% bolalarda gipotiroidizm aniqlandi. Ular orasida letargiya, soch to‘kilishi, quruq teri va sekin o‘shish asosiy belgilar sifatida kuzatildi.
- b) 27%da insulin rezistentligi, bu esa abdominal semizlik, qora akantoz (teri to‘q dog‘lari) va yuqori insulin ko‘rsatkichi bilan namoyon bo‘ldi.
- c) 11%da giperkortitsizm aniqlandi: yuzning dumaloqlashishi, qorin sohasida yog‘ to‘planishi, mushaklar zaifligi va striyalar kuzatildi.
- d) Leptin darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarning 24%ida gormonal to‘yinganlik signallarining buzilishi aniqlandi.
- e) Shuningdek, 6% bolalarda Prader–Willi sindromi, Bardet–Biedl kabi genetik sindromlar aniqlandi.

f) kompleks terapiya (diyetoterapiya, metformin, L-tiroksin, jismoniy faollik dasturi, oilaviy psixologik yordam) qo'llanilganda 3 oy ichida 72% bemorlarda BMI pasayishi va umumiy holatning yaxshilanishi qayd etildi.

Xulosa. Pediatrik semizlik — bu murakkab, ko'p omilli kasallik bo'lib, ayniqsa endokrinologik sabablar fonida rivojlanganda uzoq muddatli va individual yondashuvni talab qiladi. Har bir semiz bola chuqur endokrin tekshiruvdan o'tkazilishi shart. Vaqtida aniqlangan gormonal disbalansni tuzatish, to'g'ri ovqatlanish va harakat rejimi, psixologik yordam va ota-onalarni jalb etgan holda kompleks yondashuv semizlik oqibatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, semizlikning oldini olishda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, maktab va oilaviy ta'lim tizimida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish muhim strategik vazifadir.